

ISSN: 2545-0573

TURIZMDA REKREASION XIZMATLARNI TASHKIL QILISHDA XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH

Tuychieva Malika Shokirovna

QarDU Magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Aktiv, passiv, landshaftlar, shifobaxsh loy, rekreasion imkoniyat, rekreasion resurslar, turist oqimi, turistik manzilgohlar, tabiat.

Annotatsiya

Maqolada rekreasion turizm xizmatlarini tashkil etishda xorij mamlakatlari qo'llagan strategiyalar va taktikalar haqida so'z borib, mavjud resurslardan to'g'ri foydalanish imkonini o'rganishga e'tibor qaratadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Kirish. Rekreasion turizm o'zi bilan bir qancha soha va tarmoqlarni qamrab oladi. Uning aktiv va passiv turlarga bo'linishi alohida uning tarmoqlari qanchalik ko'pligiga ishora beradi. Aktiv rekreasion turizm chet el tajribasiga asoslanadigan bo'lsa ko'p miqdorda energiya talab qiladigan sport va sog'lomlashtirish tarmoqlarini o'z ichiga qamrab oladi. Ayniqsa hozirgi globallashuv davrida insonalar o'z sog'liqlariga e'tibor qaratishni keying o'ringa qo'yib qo'ydi, ko'p vaqtni kompyuter qarshisida yoki ish stolidan turmagan holda o'tkazishadi, shu sababdan ham ularning ko'p qismida sog'liq bilan bog'liq muammolar yaqqol ko'zga tashlanadi. Yosh chegarasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak sog'lig'ida muammosi bor insonlarning katta qismi o'rta yoshlilar ulushiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari e'tibor berishimiz lozim bo'lgan yana bir jihat bu rekreasion turizmdan foydalanuvchilarning o'ziga xos fe'l atvori va turmush darajasiga bog'liq desak also yanglishmagan bo'lamiz. Ularning moliyaviy ahvoli turizmning qaysi turlari bilan shug'ullanishiga ham ta'sir ko'rsatadi albatta. Chet el tajribasiga tayanadigan bo'lsak birinchi navbatda Rossiya davlati o'zining sof va musaffo tabiati bilan ajralib turadigan yirik davlat hisoblanadi. Uning turistik-rekreasion markazlarga mosligi iqlim, landshaft, o'rmon, dengiz kabi tabiiy resurslarga boyligi bilan izohlanib yillar davomida o'ziga turistarni jalb qilib kelmoqda. Bu davlatga sayohatchilar sog'lig'ini tiklash va ma'daniy hordiq olish maqsadida tashrif buyurishadi. Rossiya hududida turli xil shifobaxsh loy va balchiq konlari mavjud bo'lib, ular uchun maxsus sanatoriya va kurortlar barpo etilgan. Iqlim va tabiiy sharoitiga qarab kurortlar o'rmon, tog', dengiz qirg'og'ida joylashgan kabi sifatlarga bo'linadi.

Shu bilan bir qatorda dengiz kurortlarida rekreasion tadbirlarni tashkil qilish yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib haqiqiy dengiz havosidan bahramand bo'lish, davolash xususiyatiga ega balchiq va loylarda cho'milish, dengiz sohillarida dam olish, iliq quyosh nurlarida toblanish, qayiqlarda sayohat qilish, dengizga sho'ng'ish, plyajda turli faol harakat talab etuvchi o'yinlarni o'ynash kabi ko'pgina rekreasion xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Rossiyaning eng mashhur dengiz kurortlari haqida

to'xtaladigan bo'lsak – Kavkazda mavjud Qora dengiz sohillari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Gelendjik, Anapa, Sochi, Tuapse kurortlari mahalliy va xalqaro turistlar orasida ham juda mashhur. Qora dengiz sohillariga to'xtaladigan bo'lsak ham dengiz ham tog'li hududlarda joylashgani sababli juda mashhur sanaladi. Qo'shimcha sifatida shuni ta'kidlash joizki ularning mineral suvlari, go'zal landshaftlari va inson tanasiga shifobaxsh ta'siri bilan boshqalardan ajralib turadi.

Hozirgi kunda xalqaro turistik sayohatlarning 60% ini rekreasiya va rekreasion maqsadlarda sayohat qiluvchilar ulushi tashkil qilmoqda. Foiz ko'rsatgichlaridan ham ma'lum bo'lib turibdiki, rekreasion turizmga bo'lgan talab yidan-yilga o'z ulushini oshirib bormoqda.

Tadqiqotning metodologiyasi va natijalari. Kavkaz mineral suvlari mintaqasi Rossiya Federatsiyasining eng katta va eng noyob kurort mintaqasi bo'lib, yiliga kamida 1 million kishini salomatligini sezilarli yaxshilanishini ta'minlashi mumkin. Bu ko'rsatgich, Rossiyaliklarning demografik pasayishi va aholi salomatligini keskinlashuvi bilan bog'liq bo'lgan juda ham muhim vaziyat Kavkaz mineral suvlariga asoslangan kurortlarni qo'llab-quvvatlash zarur masaladir [1].

Rossiya davlatining eng yaxshi rekreasion manzil sifatida Kavkaz mineral suvlari joylashgan hudud tan olinadi. U yer dunyodagi yagona 130 dan ortiq mineral resurslar 12 turga yaqin kimyoviy moddalarni o'z ichiga qamrab olgan. Ularni iste'mol qilish insonlarda uchraydigan oshqozon-ichak traktini davolashga yordam beradi.

Bundan tashqari Shimoliy Kavkaz haqida so'z yuritadigan bo'lsak quyidagi ma'lumotarni keltirishimiz mumkin:

Rossiya Federatsiyasi Iqtisodiy rivojlanish vazirligi tasarrufidagi butun mavsumiy tog' kurortlari - "Arxyz", "Elbrus" va "Veduchi" 2021-yilda o'tgan yilga nisbatan 73 foizga ko'p sayyohlarni qabul qildi. Shu bilan birga, ikki yil ichida mehmonlar soni deyarli ikki baravar ko'paydi. Tog'li kurortlarning sayyohlik oqimi yildan-yilga o'sib bormoqda, hatto 2020 yilda ham o'sishda davom etdi, kurortlar epidemiologik cheklovlar tufayli butun bahor va yozning bir qismi yopilgan. 2022-yil yanvar oyida turistlar oqimining o'sish tendentsiyasi tasdiqlandi, joriy yilning birinchi oyida kurortlarga 2021-yilning shu davriga nisbatan 14 foizga ko'p mehmonlar tashrif buyurishdi [2]. Ma'lumot sifatida shuni ta'kidlash joizki pandemiya sharoitida ham turistlar oqimining pasaymaganligi diqqatga sazovor desak also xato bo'lmaydi.

Bu ko'rsatgichlarni faqatgina mahalliy turistlar bilan davom ettirib qolmasdan balki xorijlik turistlarni ham jalb qilish maqsadga muvofiq bo'ladi, ham dam olish bilan bir qatorda ajoyib tabiatga ega maskanlarda o'z sog'liqlarini tiklab olish imkoniyatini ham qo'lga kiritishadi.

Tahlil. Rossiya davlati statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak u yerda e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan muhim raqamlarni uchratishimiz mumkin. 2020-yilda covid-19 pandimiyasi tufayli turistlar sonini keskin kamayishiga (ya'ni 6.36 mln kishi) guvoh bo'lsakda avvalgi yillarda turizm ulushi barqaror bo'lib kelganini kuzatishimiz mumkin(1-jadval).

Rossiya davlati o'zining iqlimi, tabiiy resurslari, geografik joylashuvi, shifobaxsh suvlari va loylari bilan butun dunyoga mashhur. O'rmon va tog' tizmalari betakrorligi bilan boshqa davlatlardan ajralib turadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga nazar soladigan bo'lsak 2018-2019-yillarda turistlar tashrifi mos ravishda o'zgarib turganiga guvoh bo'lamiz.

1-jadval. Rossiya davlati turizm statistikasi

Yillar	Turistlar soni	% YaIM
2019	24.42 m	1.0 %
2018	24.55 m	1.1 %
2017	24.39 m	0.95 %
2016	24.57 m	1.0 %

Turistlar tashrifi o'rtacha kishi boshiga mos ravishda 763\$ va 706\$ ni tashkil qilgan ammo 2020-yilda bu ulush juda oz miqdorni (ya'ni YaIM 0.33%) tashkil qilgan. Turistik manzilgohlar misolida qaraydigan bo'lsak tashrif buyuruvchilar o'zlariga manzur bo'lgan va ko'rishni istagan joylarini yo rekreasiya yoki boshqa maqsadda tanlab olish uchun yetarlicha resursga ega mamlakatlar qatoridan joy olishi bejizga emas aslida chunki Rossiya takrorlanmas tabiati bilan bir qatorda tarixi, buyuk o'tmishi va albatta ma'daniy boyliklarga ega, misol sifatida quyida top turistik manzilgohlarni keltirishimiz mumkin:

- Trans-sibir temir yo'li;
- Elburs tog'i;
- Geyzerlar vodiysi;
- Kiji oroli;
- Avliyo Sofiya sobori, Novgorod;
- Baykal ko'li;
- Suzdal;
- Kremil, Moskva;
- Ermitaj muzeyi;
- Avliyo Vasiliy sobori.

Yuqorida keltirilgan manzilgohlar takrorlanmas tabiati va o'ziga xos tarixiy ma'daniyati bilan Rossiya davlatining gultojiga aylanib ulgurgan. Bu manzilgohlar Rossiya davlatida mavjud resurslardan bir tomchigina xolos, takrorlanmas tabiat va go'zal landshaftlarga boy bo'lgan bu davlatga tashrif buyurgan sayyohlar yana bir bor kelishni maqsad qilib ketadi. Top 10 talik ichidan tuxtalish uchun Kiji orolini misol qilib olishimiz mumkin:

YUNESKOning Butunjahon ma'daniy merosi ro'yxatiga kiritilgan go'zal Kiji Rossiyaning diqqatga sazovor joylaridan biridir. Onega ko'li o'rtasida joylashgan orol uzunligi taxminan 6 kilometrgacha kengayadi. Orol yog'ochdan yasalgan ajoyib me'moriy mo'jizalarga ega va yorqin an'anaviy hunarmandchilikni namoyish etadi. Bu orol, shuningdek, mamlakatning eng qadimgi yog'och cherkovi, 14-asrga oid Tirilish cherkovini ham o'z ichiga oladi. Kiji orolidagi boshqa muhim diqqatga sazovor joylar orasida 18-asrdagi Transfiguratsiya cherkovi mavjud bo'lib, unda jami 22 piyoz gumbazi mavjud [3].

Mavsumiy jihatdan ham rekreasion markazlar o'z jozibadorligi va keng imkoniyatlari bilan boshqa kurort zonalaridan ajralib turadi, ayniqsa Rossiya aholisining etnik ma'daniyati chekka-chekka tog'li hududlarda saqlanib qolgan bo'lib ularning ajoyib musiqayu raqslari sayohatchi va turistlarni o'ziga jalb wilmasdan qolmaydi. Bundan tashqari Krasnodar hudida joylashgan bir qancha rekreasion manzilgohlar oilaviy turistlar uchun mos keladi. Dengiz yaqinida joylashgan kurortlar uzun sohil bo'yi, o'ziga jalb qiluvchi tarixiy yodgorliklar, urush vaqtdan qolib ketgan germaniyaliklar binolari, so'lim parklarva o'rmonlari bu shaharni yagona takrorlanmas manzilgohga aylantirgan desak also yanglishmagan bo'lamiz.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak xorij tajribasini o'rganish va uni o'z davlatida tadbiq qilish uchun birinchi navbatda uning grografik joylashuvi tubdan o'rganib chiqish va iqlimiy sharoitlarni ham hisobga olish lozim, buning asosiy sababi mintaqalarning o'ziga xos tabiati, iqimi, landshafti, tabiiy resurslari, etnik kelib chiqishi, tarixiy yodgorliklari mavjud bo'lib, bularning barchasi har bir mamlakatda turli tarzda shakllangan. Ba'zi davlatlarda iqlim sharoiti yaxshi bo'lsada turistlarni o'ziga jalb qila oladigan tabiiy resursari mavjud emas. Ba'zilarida esa buning mutlaqo teskarisini ko'rishimiz mumkin, bunday holatlar albatta o'ziga xos muammolarni yuzaga keltirishi ayni haqiqat. Xorij

tajribalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak ular bu mummolarni yechishni yuksak darajada uddalay olishgan, ular o'z turistik manzilgohlarini reklama asosida rivojlantirgan bo'lib avvalambor ichki turizmga urg'u berishgan keyinchalik esa chet ellik turistlar uchun turmarshurt ishlab chiqib uni yanada jozibadorligi va jalb qiluvchanlik xususiyatlarini yanada boyitgan. Yuqorida biz faqatgina Rossiya davlati misolida majud bo'lgan bir qancha rekreasion markazlarni tahlil qildik xalos ammo biz bilmagan, biz xabardor bo'lmagan qanchadan qancha tabiiy resurslar va ma'daniy boyliklar mavjud bo'lishi mumkin.

Rekreasion kurortlar o'z nomi bilan insonlarni salomatligini tiklash uchun zarur bo'lgan mineral boylikka ega bo'lgan hududlarda barpo qilinadi. Shu bilan bir qatorda ta'kidlash joizki katta miqdorda tabiiy minerallarga boy davlatlarni har qadamda uchratish amri mahol natijada esa sog'lig'ida muammosi bor yoki shunchaki dam olish maqsadida insonlar ko'pincha sokin, so'lim va tabiati go'zal joylarga borib hordiq chiqarishni istashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Degtyaryova I.N, Orobinskaya V.N, Uzdenova S.B Recreational Tourism Development Management in the Region of Caucasus Mineral Waters 2020. This is an open access article distributed under the CC BY-NC 4.0 license (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>). 121 p.
2. Tourist flow in the Northern Caucasus Resorts has almost doubled in two years, Ministry of Economic Development of the Russian Federation 02.02.2022
3. 55 Places to Visit in Russia. Places to visit in Russia include Lake Baikal, Altay, The Russian Tundra, Petropavlovsk-Kamchatsky, Sochi, Kizhi Island, The Golden Ring, & more. <https://www.thrillophilia.com/places-to-visit-in-russia>
4. Sushchenko, E.N. Perspektivy razvitiya v regione KavMinVod. URL: https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=2052 Razrabotka modeli realizatsii strategii razvitiya sanatorno-kurortnogo I turistsko-rekreasionnogo kompleksa KMV. Pyatigorsk. 2012, pp. 212. <https://www.thrillophilia.com/places-to-visit-in-russia>
5. Yanovskiy, V. S. Kurortnye goroda Rossii kak ob"ekt upravleniya v kontse XIX — nachale XX veka. Kislovodsk. 2010, pp. 216
6. Development and importance of tourism for Russia International travelers and tourism sector revenues from 1995-2020 in Russia <https://www.worlddata.info/europe/russia/tourism.php>
7. Tourism and recreation in Russia 2022: beach, excursion, extreme, ecological, pilgrim, health, educational, adventure, <https://www.mouzenidis.com/en-us/russia/article/tourism-in-russia>
8. The 10 Most Beautiful Travel Destinations In Russia A guide to the most captivating and stunning natural scenery and travel destinations in Russia. <https://theculturetrip.com/europe/russia/articles/the-10-most-beautiful-travel-destinations-in-russia>